	Inklyuziv ta'lim sharoitida alohida yordamga muhtoj bolalar integratsiyasi va korreksiyasi..... 622 <i>Olimova Nodirabegim Ibroximjon qizi, Sulaymonova Shahnoza Alisher qizi</i>
	Sportning gandbol turi bo'yicha talabalar o'rtasida musobaqalar tashkil etish va o'tkazish texnologiyalarini takomillashtirish 626 <i>Berdiyev Jamshid Baxriddinovich</i>
	18–21 yoshdagi talaba futbolchilarning musobaqa faoliyati jarayonida hujum harakatlarining miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari 631 <i>Djemilov Temur Rasimovich</i>
	Boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy tarbiya darslarida harakatli o'yin vositalari orqali sog'lomlashtiruvchi mashg'ulotlar samaradorligining ahamiyati..... 636 <i>Eshpo'latova Dilnoza Mamaniyoz qizi</i>
	Ota-ona bilan munosabatlarning maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga ta'siri..... 641 <i>Izaitullayeva Lazokat Eshimboyevna</i>
	Yosh futbolchilarning jismoniy tayyorligini oshirishda kompleks mashg'ulot tizimining samaradorligi..... 646 <i>Zaripova Farida Abdullayevna, Kamoliddinov Sharif Kamoliddin o'g'li</i>
	Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida sport gimnastikasi mashg'ulotlarini rejalashtirishning ilmiy-uslubiy asoslari..... 650 <i>Mirzayev Dilshod Xamidovich</i>
	Mahalla – “jonli muzey”: 6–7 yoshli bolalarda milliy g'ururni lokal identifikatsiya orqali kuzatish modeli..... 654 <i>Omondavlatova Diyora Otabekovna</i>
	Yengil dizatriyali bolalarda nutqning bo'g'in tuzilishi va uning shakllanish xususiyatlari..... 658 <i>Pardayeva Muxlisa Furqat qizi</i>
	Ochilmagan bo'z qalblar hazor... 662 <i>Eshpulatova Saodat Maxmatovna</i>



Speaking Fluency Development Based on CEFR Linguistic.....	665
<i>Abdullayeva Charos Farkhodovna</i>	
Integrating Visual-Based Activities in English Lessons for Primary School Pupils.....	670
<i>Ataullayev Fazliddin</i>	
Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning boshlang'ich ta'lim sifat va samaradorligiga ta'siri	674
<i>Bovanova Umida Abduvahobovna, Ashurova Dildora Baxtiyor qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv faoliyatini rivojlantirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining roli	679
<i>Bovanova Umida Abduvahobovna, Radjabova Gulchexra Xalbayevna</i>	
Lotin tilini o'qitishda metodlarning qo'llanilishi va uning ahamiyati	683
<i>Eshmurodova Shirin Oybekovna</i>	
Nutqiy kompetensiyaning integratsion o'qitishda yangi metodlari va usullari.....	686
<i>Fayzullayev Sarvar Ibrohim o'g'li</i>	
Talabalarda affilativ motivatsiyani rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari va komponentlari	689
<i>Omonova Nilufar Omon qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ta'lim samaradorligini oshirishda gamifikatsiya elementlaridan foydalanishning o'rni	694
<i>Ovxunov Iqboljon Abdunabiyevich, Qodirova Sarvinoz Bahodir qizi</i>	
Tikuv texnologiyalari asosida o'quvchilarning amaliy topshiriqlar bajarish ko'nikmalarini rivojlantirish	698
<i>Qulmamatova Xurshida Abduxamidovna</i>	
Bo'lajak muhandislarning xorijiy til bilish ko'nikmalarini rivojlantirishda individual va differensial yondashuvlar uyg'unligi.....	702
<i>Qurbonova Nafisa Saidjonovna</i>	
Tarbiya panin oqituv arqali oqivshlardiin kreativ qabiletin rawajlandiruv.....	706
<i>Reymova Gulaim</i>	
Mirishkor toponimlarining leksik-semantik xususiyatlari	710
<i>Ro'ziyeva Hilola Fayzulla qizi</i>	
Taekvondochilarning jismoniy tayyorgarligini oshirish metodikasi.....	714
<i>Saydaxmadov A'zamxon Valixonovich, Qosimova Nargizaxon Rustamxon qizi</i>	
The Role of Music in Human Spiritual Development and Educational Significance.....	717
<i>Shokirkhonov Bakhtiyorxon Botirkhonovich</i>	
Boshlang'ich ta'limda tabiatga ongli munosabatni shakllantirishning nazariy metodologik asoslari.....	722
<i>Sayfetdinova Dildora Ikramitdinovna</i>	
Gematologik-onkologik kasalliklarga chalingan o'quvchilar uchun hospital maktablarida ta'lim jarayonini tashkil etish	726
<i>Isamuxamedova Dildora Raxmatillayevna, Qayumova Sabrina To'liqin qizi</i>	
Neologizmlar – badiiy matnda uslubiy vosita sifatida	730
<i>Ibragimova Shoira Normuminovna</i>	
Optimisation of Technical and Physical Potential in the Implementation of the Rotational Method of Pushing the Core.....	733
<i>Tajimbetov Anvar Tengelbayevich</i>	
Magistrlarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish – kasbiy faoliyatda o'z-o'zini shakllantirish omili sifatida.....	736
<i>Turmatov Jaloliddin Raxmatullayevich</i>	
Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak o'qituvchilarda informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirish modeli.....	743
<i>Usmonova Kamola Erkinovna</i>	
Bo'lajak chet tili o'qituvchilarining ijtimoiy lingvistik kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmlari.....	749
<i>X. A. Suyunova</i>	
Tinglab tushunish kompetensiyasini rivojlantirishda autentik materiallarning o'rni.....	752
<i>Xudoyberdiyeva Zumrat Xudayberdiyevna</i>	
Motivatsiya – inson faoliyatini harakatga keltiruvchi psixologik omil sifatida	756
<i>Yo'ldoshev Javlon Ablanazar o'g'li</i>	



Цифровые технологии и искусственный интеллект в обучении иностранным языкам: теоретико-методологический анализ	760
Абидова М. И., Абидова Д. М.	
Сюжетно-ролевая игра как способ психоэмоционального развития детей дошкольного возраста, находящихся на длительном лечении.....	764
Амитова Майисия Рахмателлаевна	
Эффективные приемы презентации лексики на уроках иностранного языка	767
Гилязиева Насиба Михайловна	
Речевые действия в методике формирования коммуникативной компетенции при обучении РКИ...	770
Ислямова Сония Юнусовна	
Трансформация ценностей, связанных с физической активностью, у представителей разных поколений: результаты современных исследований.....	779
У. Ш. Салимов	



YASSAVIY HIKMATLARINI ADABIY SHARHLASH USULI ORQALI O'QITISH

Kenjayeva Rayhona Muzaffar qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti
universiteti

O'zbek tili va adabiyoti ta'limi kafedrasida 1-kurs tayanch doktoranti

ORCID ID: 0009-0000-8398-1032

Annotatsiya: Maqolada Ahmad Yassaviy qalamiga mansub hikmatlarning mazmun-mohiyati ilmiy jihatdan tahlil qilinib, ularni tushunishda yuzaga keladigan asosiy muammolar yoritilgan. Hikmatlarni to'g'ri anglash jarayonida o'quvchi faqat lug'atlarga emas, balki sharh va izohlarga ham ehtiyoj sezishi asoslab berilgan. Mumtoz asarlarni o'qitishda adabiy sharhlash usulining nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, Alisher Navoiy va Ahmad Yassaviy kabi mumtoz adabiyot namoyondalarining ayrim asarlarini qiyosiy tahlil qilish orqali umumiy mazmuniy va g'oyaviy sharhlar berish imkoniyati tadqiq etilgan. Adabiy sharh usulidan foydalangan holda dars jarayonini samarali tashkil etish uchun topshiriqlar ishlab chiqilgan hamda sharhlarni tushunarli va ta'sirchan yetkazish maqsadida interaktiv metodlardan foydalanish yo'llari ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: hikmat, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, hadis, Qur'on, sharh, izoh, qiyos, qol va hol ilmi, tasavvuf.

Abstract: The article provides a scholarly analysis of the content and essence of the wisdom poems (hikmats) authored by Ahmad Yasawi and examines the main challenges encountered in their interpretation. It is substantiated that understanding these texts requires not only the use of dictionaries but also detailed commentaries and explanations. The theoretical and practical significance of the literary commentary method in teaching and comprehending classical literary works is highlighted. Furthermore, the study explores the possibility of offering general interpretative insights through a comparative analysis of selected works by prominent representatives of classical literature, such as Alisher Navoi and Ahmad Yasawi. In addition, instructional tasks based on the literary commentary method were developed to organize the teaching process effectively, and various interactive methods were employed to present commentaries in a clear and accessible manner.

Key words: wisdom, Ahmad Yasawi, Alisher Navoi, hadith, Quran, commentary, explanation, comparison, science of qol and hol, Sufism.

Аннотация: В статье проводится научный анализ содержательно-смысловой сущности хикматов, принадлежащих перу Ахмада Яссави, а также рассматриваются основные трудности, возникающие при их интерпретации. Обосновано, что для глубокого понимания хикматов читателю необходимы не только словари, но и развернутые комментарии и пояснения. Раскрывается теоретическая и практическая значимость метода литературного комментария в обучении и осмыслении произведений классической литературы. Кроме того, посредством сравнительного анализа отдельных произведений таких представителей классической литературы, как Алишер Навои и Ахмад Яссави, исследуется возможность формирования обобщённых интерпретационных выводов. Также разработаны учебные задания для организации занятий на основе метода литературного комментария и показаны пути использования интерактивных методов для наглядного и доступного представления комментариев.

Ключевые слова: хикмат, Ахмад Яссави, Алишер Навои, хадис, Коран, комментарий, пояснение, сопоставление, наука қол и ҳол, суфизм.

KIRISH

Xalqning butun qadriyatlarini, an'analari va o'tmish hayoti, turmush tarzi hamda madaniyati singari jihatlarni to'la qamrab olgan mumtoz asarlarni o'qitish masalasi nafaqat O'zbekiston ta'limida, balki jahon davlatlari ta'limida ham dolzarb va muammoli masala hisoblanadi. Uni qanday qilib tushunarli va samarali usulda o'qitish masalasi barcha pedagoglar e'tiborida bo'lib kelgan va bugungi kunga qadar bu borada salmoqli ilmiy hamda amaliy-nazariy ishlar amalga oshirilgan. Mumtoz asarlarni sharhlab o'qitish masalasiga deyarli har bir metodist olim to'xtalib o'tgan.

Sharhlab o'qitish usuli qadim zamonlardan qo'llanib kelinganini Arastuning "Poetika" asariga Abu Nasr Farobiy va Ibn Sino singari ajdodlarimiz tomonidan sharhlar yozilganidan ham anglash mumkin. Shu bilan birga, eng qadimgi diniy manbalar, jumladan Qur'oni Karim va Hadisi shariflarga ham olimlar tomonidan sharhlar yozilgan. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad odamlarning ushbu asarlarni yanada chuqurroq va to'g'riroq tushuna olishlariga imkoniyat yaratish bo'lgan.

Sharh (arabcha – izohlash, tushuntirish) – kitob sharhi, ya'ni kitob matniga beriladigan izoh, unga ilmiy tushuntirish va ma'lumot beruvchi qismidir. Sharh asarlarda, tarjima va hujjatli nashrlarda matnning mazmun-mohiyatini ochib berishda qo'llanadi. U muallif, noshir, mutaxassis yoki tarjimon tomonidan tayyorlanib, muayyan asar yoki matnning tarixi, uning boshqa voqea-hodisalar, fanlar, shaxslar, zamon va makon bilan bog'liqligi haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Sharhda muallif ishora qilgan ayrim voqea va faktlar, u yoki bu sabab bilan oshkora bayon etilmagan yoki bevosita yozilishi lozim topilmagan jihatlar talqin qilinadi, shuningdek, ayrim so'zlar, so'z birikmalari va iboralarning mazmuni izohlanadi. Sharh qisqa va foydalanishga qulay bo'lib, odatda matndan keyin alohida maqola yoki ma'lumot tarzida joylashtiriladi. Mumtoz asarlarga sharh alohida kitob shaklida ham berilishi mumkin [Sharh izohi: <https://uz.wikipedia.org/wiki/.sharh>].

Metodist olim Ulug'bek Dolimov o'zining "Milliy uyg'onish pedagogikasi" kitobida sharhlab beruvchilarni shorihlar deb atagan [Abdullayeva, 2024:143]. Shorihlik har bir pedagogdan talab etiladigan muhim malaka hisoblanadi. Ahmad Yassaviy hikmatlarining tili murakkab bo'lmasa-da, hikmatlar tarkibida o'quvchi uchun tushunarsiz bo'lishi mumkin bo'lgan ma'nolar hamda Yassaviyning o'ziga xos yondashuv uslubi mavjudligi sababli o'quvchilar albatta sharhga ehtiyoj sezadilar.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mumtoz adabiyotni, xususan Ahmad Yassaviy hikmatlarini o'qitishda sharhlash usulining ahamiyati adabiy ta'lim nazariyasida muhim o'rin tutadi. M. Abdullayevaning "Adabiy ta'limda innovatsion yondashuv" nomli tadqiqotida mumtoz matnlarni tushuntirishda sharh va izohlarning didaktik vazifasi asoslab berilgan bo'lib, pedagogning shorihlik malakasi ta'lim samaradorligini oshiruvchi muhim omil sifatida talqin etiladi. Shuningdek, M. Tursunovanning madrasalar ta'limiga bag'ishlangan tadqiqotlarida mumtoz asarlarni o'qitishda ilmi maoniy va ilmi g'ariba kabi sharqona metodlarning samaradorligi ilmiy jihatdan yoritilgan.

Ahmad Yassaviy hikmatlarining tasavvufiy mazmunini anglashda N. Komilovning "So'fiy psixologiyasi yoxud hol" asari muhim nazariy manba hisoblanadi. Unda tasavvufiy tushunchalar, xususan hol va maqom masalalari psixologik va falsafiy jihatdan tahlil qilinadi. E. Qurbonovanning Yassaviy va Navoiy ijodiga bag'ishlangan ilmiy ishlari esa faqr, fano, imon, tariqat kabi tushunchalarning mumtoz adabiyotdagi talqinini ochib berib, ularni qiyosiy sharhlash imkoniyatini kengaytiradi. Bu esa hikmatlarni adabiy sharhlash asosida o'qitishda muhim nazariy tayanch vazifasini bajaradi.

Mumtoz matnlarning leksik va ramziy qatlamini ochishda "Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati" alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu lug'at orqali hikmatlarda uchraydigan qadimiy va tasavvufiy birliklarning ma'nosini aniqlash imkoniyati yaratiladi. Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror" dostoni va unga oid tadqiqotlar Yassaviy hikmatlari bilan qiyosiy tahlil olib borishga imkon berib, adabiy sharhlash usulining nazariy va amaliy jihatdan samarali ekanini ko'rsatadi. Shuningdek, sharh tushunchasining umumiy ilmiy tavsifi mavjud manbalarda izohlangan bo'lib, bu usulning mumtoz adabiyotni o'qitishdagi metodik ahamiyatini belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda Ahmad Yassaviy hikmatlarini adabiy sharhlash usuli orqali o'qitish masalasini yoritish maqsadida sifat jihatdan tahliliy yondashuv asos qilib olindi. Tadqiqot ma'lumotlari asosan mumtoz adabiy manbalar, xususan "Devoni hikmat" matnlari, Alisher Navoiy asarlari hamda ularning izohli lug'atlari va tasavvufga oid ilmiy tadqiqotlar orqali to'plandi. Hikmatlar matni lug'aviy, tarixiy-adabiy va ramziy tahlil asosida o'rganildi. Shuningdek, Yassaviy va Navoiy asarlarida uchraydigan umumiy tushuncha va ramzlar qiyosiy usul yordamida tahlil qilindi. Olingan ma'lumotlar mazmuniy tahlil, taqqoslash va umumlashtirish metodlari orqali qayta ishlanib, adabiy sharhlash usulining ta'lim jarayonidagi samaradorligi aniqlandi. Natijalarni asoslashda pedagogik kuzatuv va nazariy xulosalardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Madrasalar ta'limida murakkab, xususan mumtoz asarlarni o'rgatish uchun 16 xil usuldan foydalanilgan. Biz Yassaviy hikmatlarini o'qitishda ulardan ilmi g'ariba (kam so'z orqali keng ma'noni ifodalash, aks ettirish) va ilmi maoniy (bayon etish bo'lib, biror narsa yoki hodisaning mohiyati, mazmunini ochib beruvchi ilm) kabi usullardan foydalanamiz [Tursunova, 2017:35].



Moumanni, nafs-u havo, hirsni qo'ysa,
Piri murshid mukammilg'a o'zin solsa.
Adhamlayin ko'ngil mulkin sivo qilsa,
Barcha mushkul ishi ani oson bo'lur.

Hikmatda Ahmad Yassaviy nafsdan kechishda go'yoki Adham singari bo'lib, o'zini fido qilsa, kishining barcha mushkili oson bo'lishini uqtirmoqda. Ushbu hikmatda o'quvchilar uchun bir qancha notanish tushunchalar mavjud: mouman, hirs, murshid, sivo. Qolaversa, hikmat ma'nosini ochib beruvchi Adham ismi ham o'quvchilar uchun notanish bo'lib, tarixiy-adabiy sharhga ehtiyoj tug'diradi.

Lug'at:

Sivo – o'zga, boshqa [Qarang: Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. 3-tom. 1984-yil:72].

Nafs-u havo – manmanlik, kibr [Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. 2-tom. 1984-yil:440].


Mouman – borliq.

Pir – ustoz.

Murshid – yo'l boshlovchi, rahbar, pir, eshon, ustoz.

Hirs – nafs.

Sharh: Adham obrazi tasavvufiy obraz bo'lib, yetuk so'fiylardan biri hisoblanadi. U tasavvuf olamida eng mashhur podshoh-darveshlardan biri sifatida tanilgan. Yoshligidan riyozatga va haq ilmiga qiziqqan. Rivoyat qilinishicha, Ibrohim Adham bir kuni o'z saroyida uxlab yotganida tomdan qadam tovushlari eshitiladi. Qarasa, bir kishi uning tomida yurgan bo'ladi. Podshoh undan nima sababdan tomda yurganini so'raganida, u: "Tuyam yo'qoldi, uni qidirapman", deb javob beradi. Podshoh bunga kulib: "Tuya tomda nima qiladi?" deydi. Tuyakash esa: "Sen podshoh bo'lib Haqqa yetaman deb yurganingda, men tuyamni tomdan qidirsam nima bo'libdi?" deb javob qiladi. Ushbu suhbat Adhamga kuchli ta'sir ko'rsatib, u taxtidan va butun hayotidan voz kechadi, Makkaga yo'l oladi hamda umrining oxirigacha Shomda pirlar xizmatida musofirlikda yashaydi. Yuqoridagi hikmatda ham Ibrohim Adhamning fidoiyligi ramziy tarzda ifodalangan. Unda Ibrohim podshohlik martabasi, nafsi, kibri va manmanligidan kechib, Haq yo'lida xalq xizmatiga kirgani va murodiga yetgani haqidagi g'oya ilgari surilgan. Xuddi shunday qarashlarga o'quvchi Navoiy va boshqa mumtoz ijodkorlarning asarlarida ham duch keladi (1-rasm).



1-rasm: Tasavvufiy kamolot bosqichlari va ma'naviy yuksalish yo'li"

Turkiy va zamonaviy adabiyotni ramziy ma'nolarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Ayniqsa, adabiy asarlarda raqamlarga ramziy ma'no yuklash barcha davr adabiyotiga xos bo'lgan. Masalan, 3, 7, 18 va 40 raqamlari ko'plab manbalarda ramziy ma'noda qo'llanadi. Bu ramziy ma'nolarning barchasi tasavvufiy adabiyotdan oziqlangan, desak mubolag'a bo'lmaydi. Ahmad Yassaviy hikmatlarida ham raqamlar muhim o'rin egallaydi. Ularning aksariyati ramziy mazmunda bo'lib, keyingi adabiyot namunalari uchun asos bo'lib xizmat qilgan.

Qul Xo'ja Ahmad qirqa kirding, nafsingni qirq,
Munda yig'lab oxiratda bo'lg'il ariq.
Po'sti imon shariatdir, mag'zi – tariq,
Tariq kirgan Haqdin ulush oldi do'stlar.


To'rt va qirq raqamlari mumtoz hamda tasavvufiy asarlarda chuqur ramziy ma'no kasb etadi. O'quvchilarning aksariyatiga ma'lumki, kamolotning to'rt bosqichi mavjud: shariat, tariqat, ma'rifat va haqiqat. Tasavvufiy

adabiyotda insonning yaratilishi to'rt unsur – tuproq, suv, havo va olovdan iborat bo'lib, uning kamolotga yetishi ham shu to'rt bosqich orqali amalga oshadi, degan qarash mavjud. Xoja Bektoshi Valiy bu to'rt guruhning birinchisini obidlar (asli – yel, havo), ikkinchisini zohidlar (asli – otash), uchinchisini oriflar (asli – suv) va to'rtinchi toifani muhiblar deb ataydi. Ularning barchasi ahli haqiqat bo'lib, asli tuproqdir [Qurbonova, 2022:138]. Agar ushbu to'rt unsurning birortasi yetishmasa, inson yaratilmaganidek, kamolotning to'rt bosqichini bosib o'tmasdan Yaratuvchiga yetib bo'lmaydi.

Hikmat tarkibidagi 40 soni ham alohida e'tiborga loyiq. Ushbu son ko'plab manbalarda muqaddas hisoblanadi. Qirq yoshning muqaddasligiga bir necha o'rinlarda duch kelinadi. O'qituvchi shu o'rinda quyidagi savollar bilan murojaat qilishi mumkin:

1. Siz 40 soniga qaysi manbalarda yoki o'rinlarda duch kelgansiz?
2. Hikmatda nima sababdan ushbu sondan foydalanilgan?

Olib borilgan muhokamalardan so'ng taqqoslash usulida 40 soni uchraydigan holatlar keltiriladi va xulosada uning mazmuni ochib beriladi. Ushbu muhokama, misollar va fikrlardan so'ng o'qituvchi tomonidan qirq sonining ramziy ma'nolari "Tarmoqlash" usuli orqali izohlanadi. Tasavvuf va boshqa adabiyotlarda qirq soni hamda qirq yosh mukammallik, yetuklik va tugallik ramzi sifatida qo'llanilgan. Al-Basriyning fikricha, diniy adabiyotlarda qirq yosh voyaga yetish yoshi hisoblanadi [Obidov, 2005:56]. Shuningdek, 40 sahih hadis tushunchasi ham mavjud. Qur'onda ham inson 40 yoshga yetganda o'zini anglashi lozimligi ta'kidlanadi (2-rasm).




2-rasm: Tasavvuf va diniy manbalarda qirq sonining ramziy ma'nolari

Ahmad Yassaviy hikmatida ham 40 soni aynan voyaga yetish yoshi ma'nosida qo'llangan. Shu o'rinda "Aqliy hujum" metodidan foydalanib, o'quvchilarning diqqatini jamlash mumkin:

1. Voyaga yetish yoshi aslida nechchi yosh?
2. Nima uchun 40 yosh voyaga yetish yoshi deb qaraladi?

Adib imonning belgisi haqida ham o'z qarashlarini bayon etadi. Ushbu munosabatni Navoiyning qarashlari bilan taqqoslab berish o'quvchi tafakkurini boyitadi. "Mahbub ul-qulub" asarida: "Vafosizda hayo yo'q, hayo-sizda vafo yo'q. Har kimda bu ikki yo'q – imon yo'q", deya imon belgisi izohlanadi(3-rasm).



3-rasm: Ahmad Yassaviy va Alisher Navoiy qarashlarida ma'naviy-axloqiy tushunchalar qiyosi

Shuningdek, "Hayrat ul-abror" dostonida birinchi maqolat to'liq "Imon" sharhiga bag'ishlangan. O'qituvchi shu o'rinda mazkur fikrlarni keltirib, taqqoslash asosida tushuntirishi mumkin. Navoiy nazdida imonli kishida uchta sifat bo'lishi kerak: sabr, shukr va hayo [Abdullayeva, 2024:592].



Bas uni inson atag'il beriyo,
Kim ishidur sabr ila shukru hayo [Alisher Navoiy, 2013:86].

Xulosa tarzida aytganda, Alloh yo'liga va tariqatga kirish uchun kishi qalbida avvalo iymon bo'lishi, ushbu yo'ldagi qiyinchiliklarga esa sabr, shukr va hayo bilan bardosh berishi lozim.

Mazkur hikmatni badiiy jihatdan ham tahlil qilish mumkin. Asarda Yassaviy o'xshatish san'atidan unumli foydalangan. U imonni danakka qiyoslaydi: qobiq – shariat, mag'iz – tariqat. Danak, mag'iz va qobiq obrazlari Navoiy ijodida ham uchraydi. Bu orqali qiyosiy tahlil amalga oshiriladi(4-rasm).



4-rasm: Ahmad Yassaviy va Alisher Navoiy ijodida qobiq va mag'iz ramzining qiyosiy talqini

O'quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirish maqsadida "G'oya top" metodi asosida quyidagi savollar beriladi:

1. Siz danakning po'sti va mag'zini nimaga qiyoslagan bo'lardingiz? Nima uchun?
2. Ahmad Yassaviy danakning mag'zi haqida qanday xulosa bermoqda?

Ushbu savollar asosida muhokama va tahlillar olib borilib, umumiy xulosalar shakllantiriladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Jahon xalqlarining barchasida o'z millatiga tegishli bo'lgan mumtoz asarlarni o'qitish tajribasi bugungi globallashtirish asrda ham izchil taraqqiy etib kelmoqda. Barcha mamlakatlarda klassik asarlarni o'qitishda turli yondashuvlardan foydalaniladi. Masalan, ingliz adabiyotining mumtoz qismini o'qitishda asosan klassik usul va Sokratik usuldan foydalanilsa, rus adabiyotini o'qitishda ko'pincha sahna usuliga murojaat qilinadi.

Turkiy xalqlarning mumtoz adabiyoti esa o'zining chuqur falsafiy-axloqiy, tasavvufiy-diniy mazmun bilan oziqlanganligi hamda ramzlar orqali ifodalanganligi sababli sharqona o'qitish usullaridan, xususan sharhlab o'qitish usulidan foydalangan holda tahlil qilish yuqori samaradorlik berib kelganligiga tarix guvohlik beradi. Boisi, turkiy adabiyot o'ziga xos xususiyatlari bilan boshqa xalqlar adabiyotidan tubdan farq qiladi. Shu sababli ularni o'qitishda boshqa millatlarning metodikasini to'liq ko'chirish maqsadga muvofiq emas, balki turkiy adabiyotning o'ziga xos ichki qonuniyatlariga tayangan holda shakllangan metodik yondashuvlardan foydalanish zarur.

Bugungi zamonaviy o'quvchilar uchun mumtoz asarlarni tahlil qilish jarayonida ana shu sharqona va sharhlashga asoslangan usullardan samarali foydalanish asar mazmunini chuqur anglash va to'g'ri tushunishga katta yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. M. Abdullayeva. 2024. Adabiy ta'limda innovatsion yondashuv. – Toshkent: Bookmany Print.
2. Sh. Baxramov. 2022. Tasavvuf matnlarida realiyalar tarjimai masalasi. Tarjimashunoslar forumi.
3. N. Komilov. 2019. So'fiy psixologiyasi yoxud hol. Xurshid Davron kutubxonasi.
4. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. 1984. – Toshkent: Fan. 3-tom.
5. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. 1984. – Toshkent: Fan. 2-tom.
6. E. Qurbonova. 2022. Yassaviy va Navoiy ijodida faqr-u fano talqini. Alisher Navoiy adabiy va ilmiy merosini o'rganish masalalari. Xalqaro konferensiya. – Toshkent: Adast Poligraf.
7. Obidov. 2005. Payg'ambarlar tarixi. – Toshkent: Movarounnahr.
8. M. Abdullayeva. 2024. Maqolat va hikoyat uyg'unligi. Alisher Navoiy va XXI asr. 9-uluslararo xalqaro konferensiya. – Toshkent – Bursa.
9. Alisher Navoiy. 2013. To'la asarlar to'plami. O'n jildlik. Hayrat ul-abror. – Toshkent: G'afur G'ulom.
10. M. Tursunova. 2017. Madrasalar ta'limida adabiyot o'qitish usullari. – Toshkent: Mumtoz so'z.
11. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Sharh>

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №2(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.